

Jizzakh State Pedagogical Institute



**Journal of Preschool
Education**

*The faculty of pre-school
education*

GRAMMATIKA TURKUMLARI VA MORFOLOGIK KATEGORIYALARI.

**Inomova Nilufar
Erkinova Mohinur
Abulqosimova Ra'no
Hayitboyeva Xurshida**

Anatatsiya: Grammatika haqida tushuncha ,grammatikada morfologiya va sintaksisning ro'li, Grammatik kategoriya haqida tushuncha ,Grammatik shakl haqida tushuncha va faol Grammatika ,nafaol grammatika.

Kalitso'z: Grammatik usullar, grammema, faol va nafaol grammatika ,morfologiya va sintaksis. Kategoriya va shakl.

Grammatika tilshunoslik bo'limida muhim ro'l o'ynaydi. Grammatika yunonchadan olingan bo'lib harf yozish degan ma'noni anglatadi. Bu tilshunoslikning tilning Grammatik tuzilishini, ya'ni so'zlarning shaklga ega bo'lish qonuniyatlarini, shuningdek, so'z brikmalari va gaplarni tuzish qonuniyatlarini o'rganadigan bo'lim. Grammatika 2 qisimdan iborat – morfologiya va sintaksisdan iborat. Morfologiyada so'zning Grammatik turkumlari va morfologik kategoriyalar ,so'z shakllari, sintaksisda esa so'z shakllarining gap tarkibida o'zaro birikish yo'llari, gap va uning kategoriyalari, gapning tuzilish turlari bayon qilinadi. Demak, grammatikda so'z shakli, grammatik ma'no, grammatik shakl, grammatik kategoriya, gap va uning kategoriyalari haqidagi tushunchalar markaziy o'rinni egallaydi. Tilda o'zining doimiy ifodalovchisiga ega bo'lgan ,so'z shakli va gapga xos umumlashgan ma'no grammatik ma'no sanaladi. Ma'lum grammatik ma'noni ifodalash uchun xizmat qiladigan moddiy vosita Grammatik shakl hisoblanadi. Grammatik shakllarni grammatik kategoriyani tashkil etgan unsurlar deyish mumkin. Aslida grammatik shakl deganda, ma'lum grammatik ma'noning moddiy tomoni tushuniladi. Grammatik shakl grammatik kategoriyani

tashkil etgan qismlarning bir tomonini –shakliy tomonini ifodalaydi. Shu bois, grammatik kategoriyalar Grammatik shakllarning munosabatidan yuzaga kelgan umumiylik, deyilsa mantiqan to'g'ri bo'lmaydi. Chunki grammatik kategoriya tarkibiga tarkibiga kirgan har bir qism ham, o'z navbatida ,shakl va mazmun munosabatidan tashkil topgan yaxlitlikdir. Shu sababli ayrim mualliflar grammatik kategoriya tarkibiy qismlari uchun grammema atamasidan foydalanmoqdalar.

Grammatik kategoriya-maxsus ko'rsatkichlar yordamida so'zlarning o'zgarishi, birikish va gap hosil qilish qoidalariga asoslangan umumgrammatik tushuncha .Grammatik kategoriya grammatikaning qaysi sohasiga olinganligiga ko'ra morfologik va sintaktik kategoriyaga bo'linadi. Sintaktik kategoriyalar morfologik kategoriyaga teng bo'lmaydi. Masalan: bizning oila –to'q oila .Bu jumlada morfologik jihatdan to'rt so'z ,uch xil so'z turkumi bor (olmosh, ot, sifat, ot), sintaktik jihatdan esa faqat ikki bo'lak –ega va kesim mavjud .Fe'lda 3ta grammatik kategoriya bor .Mayl, zamon, shaxs-son kategoriyasi.

Grammatik shakl-grammatik vosita bildiruvchi ,grammatik ma'no ifodalovchi til shakli. Masalan: o'zbek tilida “yaxshi-yaxshi” deb “yaxshi” sifati takrorlansa, bu so'z o'z ma'nosini kuchaytrish uchun xizmat qiladi. Xuddi shu grammatik vosita ba'zi tillarda, mas, Malaya, yoki indonez tilda ko'plikni bildiradi. Muayyan bir tilda turli Grammatik shakl bir ma'noda qo'llanishi ham mumkin :yotir, yapti, moqda kabi o'zbek tilidagi Grammatik shakl fe'lning hozirgi zamon shaklidir. Aksincha, ayni bir Grammatik shakl birdan ortiq grammatik ma'noni bildiradi. Masalan, "lar "shakli "ishlar" so'zida ham fe'l ,ham sifatdosh, ham ko'plik hisoblanadi.

Grammatik birliklarni grammatik kategoriyalarga birlashtirishda shu kategoriyalarga birlashtirishda shu kategoriyaga xos umumlashgan ma'no mazkur kategoriyaga birlashgan har bir grammemada takrorlanadi. Shu bilan birgalikda kategoriya doirasidagi har bir grammemaning boshqasidan farq qiladigan ma'nosi ham bor. Ana shu ma'nolar katego'riya unsurlarining o'zaro zidlanishida asos

bo'lib xizmat qiladi. Shunday qilib , kategoriya tarkibidagi grammema ma'nosi o'rtasida tur-jins munosabati mavjud .

Grammatika ma'lum til qurilishini qanday o'rganishiga ko'ra ,amaliy grammatika va nazariy grammatikaga bo'linadi .Amaliy grammatika muayyan bir tilda gapning tog'ri qurilishi uchun zarur bo'lgan grammatik qoidalarni tafsiflaydi.U o'z navbatida 2 turga bo'linadi :tavsifiy va me'yoriy grammatika Tavsifiy grammatika til grammatik qurilishini tavsiflash,bayon qilish bilan cheklanadi.Me'yoriy grammatika esa til faktlarining til faktlarning til me'yoriga munosabatini ,malum bir lisoniy birlik yoki qurilmaning to'g'ri yoki noto'g'ri qo'llanganini o'rganadi.Amaliy grammatikadan farqli ravishda, nazariy Grammatik til qurilishini tavsiflash bilan birga ,til qurilishidagi birliklarning o'zaro munosabatini o'rganadi.Grammatik birliklar tadqiqotchi tomonidan qaysi tomonidan o'rganilishiga ko'ra ,Grammatik faol,nofaol turlarga bo'linadi.Shakldan ma'noga qarab tadqiq qilish usuli –semasiologiya usulidir .Bu usulda ma'lum grammatik birliklarni o'rganish nofaol grammatika sanaladi .Aksincha ,mazmundan shaklga tamoyili bilan ish ko'ruvchi Grammatik faol grammatika hisoblanadi.Faol grammatikada u yoki bu mazmun qanday yo'llar bilan moddiylishishi mumkinligi aniqlanadi.

Adabiyotlar ro'yxati:

- 1.Yespersen O Filsofiya grammatigi. M. 1958
- 2.Sodiqov .A O'zbek tili grammatikasi .T. 1975,1981
- 3.Hojiyev A,Lingvistik terminlarning izohli lug'ati.T .1985
- 4.Shoabdurahmonov.Sh .Hozirgi o'zbek adabiy tili, T .1980
- 5.Shahobiddinova .Sh O'zbek tilining nazariy grammatikasi,T,2001.